



QISHLOQ XO'JALIGIDA AGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Safieva Nigora, Alimova Dilafruz, Zaripov Azamat

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Agrosanoat kompleksini yaratish obyektiv zaruriyati. Zamonaviy sharoitda samarali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'p jihatdan iqtisodiyotning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga bog'liq.

Sanoat tarmoq tuzilmasi o'zgarishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri fan-texnika taraqqiyotidir. Fan-texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbob-uskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bog'liq. Bu esa, mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan-yangi sohalarning ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan avtomobilsozlik, asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur'atlar bilan rivojlanadi.

Kalit so'zlar: Agrosanoat, Sanoat tuzilmasi, YaIM deflyatori indeksi, investitsiya loyihalari, import xajmi, dasturiy kompleks.

Kirish

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari - kontsentratsiyalash, mahalliyashtirish va diversifikatsiyalash juda katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur dasturning rivojlanish bosqichlari Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 yanvardagi 18-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 8 maydagi 93-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori orqali belgilab berilgan. Sanoat fan-texnika taraqqiyoti tufayli yangi progressiv xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya turlaridan foydalanish sanoatda ishlab chiqarish xarakterini o'zgartiradi. Yuqori tejamkorlikka ega bo'lgan xom ashyo, material yarim-fabrikatlar va yoqilg'i ishlab chiqaradigan tarmoqlar iste'molchi tarmoqlarga mahsulot etkazib berish ko'lamini kengaytirishlari natijasida xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji nisbatan kamayadi. Masalan, sun'iy va sintetik tolani ishlab chiqarishning taraqqiy etishi to'qimachilik sanoatida bir so'mlik mahsulot uchun sarflanadigan tabiiy tola sarfini qisqartiradi. Natijada mahsulotning materialtalabligi kamayadi va sanoat bilan qishloq xo'jaligi, sanoatning qazib oluvchi tarmog'i bilan ishlov beruvchi tarmog'i o'rtasidagi nisbat o'zgaradi.

Tahlil va natijalar

Sanoatning rivojlanishstrategiyasini ishlab chiqishjarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va



tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Shu bilan birga 2018-2021 yillarga mo'ljallangan Tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturiga muvofiq 2019-2020 yillarda bir qator ishlar amaga oshirildi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2018 yildagi 35,6%dan 2030 yilda 40% oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, "shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo'lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi. Ayni shu ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ya'ni, jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan, o'zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, biz oldimizga aniq maqsadni – ya'ni, 2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor.

Biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalar qanchalik asosli ekanini quyidagi hisob-kitoblar ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030 yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi."

Mashinasozlikda asosiy tarmoqlar hozirda mehnat va kapital samaradorligi yuqori, mahsulotlarni raqobatbardosh va jahon bozoriga chiqish ikoniyatlari yuqori bo'lgan avtomobilsozlik, ehtiyotqismlarini ishlab chiqarish, elektrotexnika tarmoqlari hisoblanadi. Mazkur sohalarning mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmidagi ulushi ortib boradi. Konyunktura omillari, asosiy kapital va avval jamg'arilgan zahiralari hisobiga avtomobilsozlik, maishiyelektr texnikalari ishlab chiqarishning yuqori darajada o'sishi kutilmoqda. Mavjud tarmoqlar xorijiy investorlar uchun juda jozibali hisoblanadi, shuning uchun ham ularning maksimaldarajada ko'plab kirib kelishi uchun qulay sharoitlar yaratilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasida sanoat rivojlanishining 2018-2021 yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari tahlili

2018-2021 yillarda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy o'zgarishtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish uchun qiymati 19 milliard 640 million dollarlik 711 yangi loyihaning sarmoyadorlari va moliyalashtirish manbalariga yani qiymati 21 milliard 169 million dollar kapital ajtatishtirish ko'zda tutilib, 2018-2021 yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar tahlili va ustivor yo'nalishlari quyidagilar:

1. Resurs tejaydigan bug'-gaz qurilmasi va quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha sinab ko'rilgan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosida elektr energetika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini izchil modernizatsiya qilish va yangilarini tashkil etish.

«O'zbekenergo» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi Dastur doirasida Navoiy issiqlik elektr stantsiyasini 450 MVt quvvatga ega ikkinchi bug'-gaz

qurilmasini qurish orqali kengaytirish, Quyi-Bo'zsuv GESi kaskadi, Farhod GESi va «Toshkent GES» kaskadi unitar korxonasini modernizatsiya qilishni boshlaydi. «O'zbekko'mir» aktsiyadorlik jamiyatida Apartak konini qurish va moliyaviy hisobga olish va hisobdorlik, xodimlar, tezkor hamda ishlab chiqarish-texnologik faoliyatni boshqarishni kompyuterlashtirish bo'yicha integratsiyalashtirilgan kompleks tizimni joriy etish ko'zda



tutilmoqda.

2. Neft-gaz va neft-kimyano sanoatida tabiiy gaz va gaz kondensatini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va turini kengaytirish.

Umuman, geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyono va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha 124 investitsiya loyihasi, shuningdek, xorijiy sarmoyadorlarni jalb etgan holda 48 istiqbolli investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmogda.

Masalan, «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi quvvatlarini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish, «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar korxonasida gaz-kimyono majmuasini barpo etish, Ustyurt gaz-kimyono majmuasi xomashyo bazasida uglevodorodlar pirolizi ishlab chiqaradigan yangi zavod, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining to'rtinchi tarmog'ini qurish, «O'zbekkimyomash» zavodining yirik va og'ir neft-gaz-kimyono uskunalari ishlab chiqaradigan quvvatlarini kengaytirishning ikkinchibosqichi, plastik mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, geologiya-qidiruv ishlari uchun yuqori texnologiyali uskunalarni xarid qilish va boshqa loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilayotir.

3. Kimyono sanoatida ishlab chiqarish va eksportni murakkab mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik kauchuk, metanol va keng turdagi maishiy-kimyono tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali diversifikatsiya qilish.

Agrosanoat integratsiyasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi natijasidir. Shu asosda qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari yanada yaqinlashmogda. Undan ishlab chiqarish, texnik, agrokimyoviy xizmatlar, melioratsiya, veterinariya xizmatlari va boshqalar kabi maxsus korxonalar va sohalarga berilgan bir qator funksiyalar ajratilgan. Agrosanoat majmuasining boshqa tarmoqlarida xususan kimyono sanoatida ishlab chiqarish va eksportni murakkab mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik kauchuk, metanol va keng turdagi maishiy-kimyono tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali diversifikatsiya qilinmogda.

Xulosa va takliflar

Sanoatning rivojlanishstrategiyasini ishlab chiqarish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2018 yildagi 35,6%dan 2030 yilda 40% oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, "shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo'lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari - kontsentratsiyalash, mahalliy lashtirish va diversifikatsiyalash juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalarning ko'payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning umumsanoat mahsulotidagi miqyosi oshishiga olib keladi. Maxalliy lashtirish zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatdosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish xajmini oshirish, asossiz import xajmini qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi



masalalarni hal etadi. Diversifikatsiyalash esa korxonalar va tarmoqlarning faoliyat sohaslarini o'zgartirish va kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ko'paytirish va ularning xilma-xilligini ta'minlaydi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash tufayli mashinasozlikda butlovchi buyumlar sanoati, asbob-uskuna sanoati, asbobsozlik, elektronika va boshqa sohaslar tashkil topdi.

Aholining moddiy farovonligining o'sishi ham sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'zgarishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ta'siri ostida engil va oziq-ovqat sanoatlarida chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti o'zgaradi, shuningdek, madaniy-maishiy buyumlar — mebel, televizor, muzlatkichlar, konditsionerlar, kir yuvish mashinasi, mototsikl, velosiped, sport anjomlarini ishlab chiqaradigan maxsus tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalari tashkil topadi. Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri — mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 iyulda "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4406-sonli Qarori
2. Prezidentimizning 2018 yil 4 martdagi «2018-2020 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 yanvardagi 18-sonli qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 8 maydagi 93-sonli qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori
8. A.Burxonov Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik) 2021 yil